



THE ROLE OF AGRICULTURE IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE KHIV KHANATE

Malika Matkarimova

Teacher of the Department of Social Sciences
the Urgench branch of the Tashkent Medical Academy
Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Khiva Khanate, Kungrad Dynasty, economic and social life, trade, agriculture, livestock, land ownership, tax system.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: The article is devoted to the role of agriculture in the economic development of the Khiva Khanate during the Kungirat dynasty. The article highlights the role of agriculture, farming, and animal husbandry in the economic development of the Khiva Khanate.

XIVA XONLIGINING IQTISODIY TARAQQIYOTIDA QISHLOQ XO'JALIGINING O'RNI

Malika Matkarimova

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Qo'ng'irotlar sulolasi, iqtisodiy-ijtimoiy hayot, savdo-sotiq dehqonchilik, chorvachilik, yer egaligi, soliq tizimi.

Annotatsiya: Maqola Xiva xonligi Qo'ng'irotlar sulolasi davrida iqtisodiy taraqqiyotida qishloq xo'jaligining o'rniga bag'ishlanadi. Maqolada Xiva xonligi iqtisodiy taraqqiyotida qishloq xo'jaligi, dehqonchilik va chorvachilikning ulushi yoritilgan.

РОЛЬ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ХИВСКОГО ХАНСТВА

Малика Маткаримова

Преподаватель кафедры «Общественных наук»
Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии.
Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хивинское ханство, династия Кунградов, экономическая и общественная жизнь, торговля, земледелие, скотоводство, землевладение, налоговая система.

Аннотация: Статья посвящена роли сельского хозяйства в экономическом развитии Хивинского ханства в период правления династии Кунгират. В статье освещается роль земледелия, земледелия и скотоводства в экономическом развитии Хивинского ханства.

Kirish. Xiva 2500 yillik tarixga ega muzey-shahar. 19 asrning boshlarida Xiva xonligida hokimiyatni qo'lga olgan Qo'ng'irotlar sulolasi davrida faol elchilik aloqalari hamda savdo iqtisodiy aloqalar faol bo'lgan. 17-19 asr va 20 asr boshlarida Xorazmda yozilgan tarixiy asarlarda Xiva xonligining Buxoro, Qo'qon xonliklari va Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan savdo va diplomatik munosabatlari haqida ma'lumotlarni ko'p uchratish mumkin. Xivada Qo'ng'irotlar hukmronlik qilgan davr (1770-1920) iqtisodiyoti asosan an'anaviy dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo sotiqqa asoslangan.

Masalaning mazmuni. Xiva xonligi iqtisodiyoti XVIII-XIX asrlarda o'ziga xos tizimga ega bo'lib, xonlikning iqtisodiyoti, asosan, agrar munosabatlarga tayangan bo'lib, hunarmandchilik dehqonchilik va chorvachilik asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari sifatida yetakchilik qilgan. Shuningdek, hunarmandchilik va savdo-sotiq faoliyati ichki ehtiyojlarni ta'minlash va tashqi bozorlar bilan aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. Xiva xonligi iqtisodining taraqqiy qilishida bevosita xonlikning Amudaryo vohasida joylashgani, sug'oriladigan yerlarning mavjudligi va karvon yo'llariga yaqinligi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi uchun bevosita zamin bo'lib shakllanishiga ta'sirini o'tkazgan.

Xiva xonligi iqtisodiy hayotining asoslaridan biri hisoblangan dehqonchiliksa Amudaryo va uning quyi oqimidan olingan ko'plab kanal va ariqlar muhim o'rin egallaydi. Xonlikdagi yerlar Amudaryodan suv olib sug'orilgan bo'lib, sug'orish ishlarida chig'irdan foydalanilgan hamda sug'orish uchun ko'plab kanallar Shoxobod, Yormish, Polvonyop, G'azovot, Qilioch Niyozboy shular jumlasidandir.

Xiva xonligi davrida Xorazm iqtisodiy hayotining asosiy tayanchi bo'lgan qishloq xo'jaligi, ayniqsa dehqonchilik va chorvachilik sohalarida jadal taraqqiyot ko'zga tashlanadi. Aholining asosiy hayot manbai bo'lgan agrar sektor xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasida hal qiluvchi rol o'ynagan. Xiva xonligidagi o'zlashtirilgan sug'oriladigan ekin yerlarining 90 foizga yaqini janubiy qismida edi. Sug'oriladigan yerlar tarmoq ko'rinishidagi ariq, kanal va daryolardan iborat murakkab tizim orqali suv bilan ta'minlangan.

Xonlikning janubida joylashgan Xiva, Xonqa, Yangi Urganch, Xazorasp, Ambar Manoq, Toshhovuz, Ilyali, Pitnak kabi rayonlar eng unumdor rayonlar hisoblanib, dehqonchilik mahsulotlarining 80 foizi aynan shu yerda yetishtirilgan. Aynan janubiy hududda xonlik

aholisining 60 foizi istiqomat qilardi. Bu hududda asosan don yetishtirilsada, u bilan birga paxtachilik, pillachilik hamda qorako'lchilik ham ancha rivojlangan.

Dehqonlar yerga ishlov berishganda maxsus agrar texnologiyalardan foydalanishgan. Ular yerlarni bo'yi va eniga 5, 10 hamda 20 marotabagacha haydaganlar. Bunday mashaqqatli mehnat talab qiluvchi usullar dehqonchilikda unumdorlikni oshirishga xizmat qilgan. Xiva xonligida qadimdan ma'lum bo'lgan qishloq xo'jaligida keng qo'llanilgan ekinlarni almashlab ekish— ya'ni sug'oriladigan dalalarga navbatma-navbat har xil turdagi ekinlarni ekish orqali, yerning unumdorligini saqlab qolish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Sug'oriladigan yerlarning 50 foizdan ko'pi xon va amaldorlar qo'lida to'plangan bo'lib, yirik yer egalari o'ziga tegishli yerlarini kambag'al dehqonlarga og'ir shartlarda ijaraga berganlar.

Xiva xonligining iqtisodiy taraqqiyotida dehqonchilik yetakchi o'rinni egallagan bo'lib, ayniqsa donli ekinlar yetishtirish asosiy yo'nalishlardan biri hisoblangan. Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bug'doy, arpa va sholi eng muhim mahsulotlar sifatida ichki iste'mol bozorlari bilan birga, tashqi savdo-sotiqda mol ayirboshlash vositasi sifatida ham muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, donli ekinlardan sholini yetishtirish yuqori darajadagi sun'iy sug'orish tizimiga asoslangani voqea dehqonchilik madaniyatining yuksakligini namoyon qiladi.

Xonlik dehqonchiligida asosiy o'rinni donli ekinlar egallagan, ayniqsa bug'doy, arpa, jo'xori, mosh, arpa, tariq va sholi kabi ekinlar asosiy oziq-ovqat manbai sifatida hamda bu mahsulotlar ichki ehtiyojni ta'minlash, ayrim hollarda esa savdo-iqtisodiy ayirboshlash vositasi bo'lib ham xizmat qilgan. Moyli ekinlardan esa kunjut, zig'ir ekilgan, sabzavot poliz ekinlari hamda tamaki, paxta yetishtirilgan.

Xiva xonligining aholisi, asosan, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangan. Dehqonchilik bilan chorvachilik qishloq xo'jaligining ikki asosiy sohasi bo'lib unda

dehqonchilikda g'alla, paxta va poliz mahsulotlari yetishtirish yetakchi o'rin egallaganidan ekinzorlarning yarmidan ortig'ida g'alla yetishtirilgan. G'allachilikda kuzgi bug'doy ekish yetakchi o'rin egallagan bo'lib dehqonlarning don ekinlaridan mo'l hosil olishlariga hatto chet elliklarning ham tan berganligiga tarix guvoh. Xivaga kelgan yevropalik sayyohlardan biri shu jumalarni aytgani manbalarda saqlanib qolgan: "Men Germaniyaning o'zida dalada ishlovchilarning Xivadagidek mirishkorligini ko'rmaganman". Don ekinlari ichida jo'xori ekish bug'doydan keyin ikkinchi o'rinda turgan bo'lib, sholi ekish, asosan, suv ko'p hududlarda yetishtirilgan. Ekinzorlarning 1/5 qismida paxta yetishtirilgan va xonlik iqtisodiyotida pillachilik ham muayyan ahamiyatga ega bo'lgan. Poliz mahsulotlari ichida Xorazm qovunining dovrug'i keng yoyilgan edi. Bundan tashqari, xonlikda bog'dorchilik ham dehqonchilikning rivojlangan sohalaridan biri bo'lgan.

Xorazm dehqonchiligining alohida jihati - bu qovunchilik sohasidagi yuksak yutuqlaridir. Manbalarda qayd etilishicha, Xorazm qovunlari nafaqat vohaning iqlimiy va agrotexnik sharoitlariga moslashgan, balki mazasi, shakli va saqlanish darajasi jihatidan ham butun Markaziy Osiyoda o'ziga xos mavqega ega bo'lgan. Mahmud ibn Valiyning "Bahr ul-asror" asarida Xorazm qovunlarining urug'lari boshqa hududlarga, ayniqsa Balx vohasiga eksport qilingani va u yerda yangi navlar yaratishda asos bo'lgani alohida ta'kidlanadi. Bu holat vohada seleksiya ishlarining yuksak rivojlanganini, agrar innovatsiyalar mavjud bo'lganini va ekinlarni adaptatsiya qilish borasida muhim amaliy tajriba shakllanganini ko'rsatadi.

"Xivaqning guruch va qovuni juda ham shirin bo'ladi. Iqlimi toza, odamlari xushfe'l. ... Ammo bir nuqsoni bor – qumloq va suvni u yerga mesh va chelaklarda ming qadamdan tashib keladilar" – degan Bo'riboy Ahmedov ilmiy maqolalarida. Qovunchilikda qovunning oftobda quritilgan qoqi shaklida, uzoq masofalarga eksport qilingan bo'lib, Hindiston, Xitoy, Eron kabi mintaqalargacha mashhur bo'lib, yuqori talab bilan sotilganligi Xorazm savdo aloqalarining rivojlanganidan dalolat beradi. 1864-yilda nashrdan chiqqan A. Vamberining "Travels in Central Asia" asarida Xiva xonligining mashhur qovunlarining Pekin shaxri (hozirgi Beijing) gacha mashhurligi qayd qilingani Xorazmning aynan Xiva xonligi mahsulotlarining xalqaro bozordagi obro'-e'tibori balandligidan dalolat beradi. Vamberining yozishiga qaraganda: "Xiva mevalari shu qadar yaxshiki, ularga o'xshashini nafaqat Eron va Turkiyada, balki butun Yevropada ham topish qiyin. Ayniqsa, Hazoraspning olmalari, Xivaning nok va uzumlari va uzoq Pekin shahrigacha mashhur bo'lgan beqiyos ajoyib qovunlari tahsinga loyiq". Birinchi o'zbek sur'atchisi Xudoybergan Devonovning kadrlarida ham Xiva xonligidagi bozor rastalarida ham qovunlarning savdosini ko'rib guvoh bo'lishimiz mumkin.

Xorazm vohasida donli ekinlar va qovunchilik bilan birga bog'dorchilik ham juda rivojlangan bo'lib, uzum, anor, olma, nok, gilos va shunga o'xshash boshqa ho'l mevalarning xar xil tur navlari yetishtirilgan bo'lib, bu mevalar ichki bozorlarda ham iste'mol qilingan, tashqi savdoga ham chiqarilgan albatta. Qishloq xo'jaligidagi hamma sohalar bir-biri bilan o'zaro uyg'unlikda rivojlanib, Xiva xonligining iqtisodiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shganidan dalolat beradi.

Xiva xonligida dehqonchilik bilan shug'ullanish faqat oddiy qishloq xo'jaligi faoliyati sifatida o'ziga xos ilmiy-tajriba maktabi, o'ziga xos usul va yondashuvlar bilan boyitilgan agrar madaniyatning namoyon bo'lishidir. Bu esa o'z navbatida Xorazm vohasi ayniqsa Xiva xonligidagi bozor iqtisodiy munosabatlari, savdo-sotiq, tarixiy iqtisodiy taraqqiyoti salohiyati hamda madaniy merosini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Xiva xonligining o'troq qishloq xo'jaligida chorvachilik ham dehqonchilik bilan birga taraqqiy etgan asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Xonlikda istiqomat qilayotgan oilalarning

ko'p qismi chorva mollari — ot, ho'kiz (qoramol), tuya va eshakdan turli xo'jalik ishlarida, ayniqsa dehqonchilik qilishda, xususan yerga ishlov berishda hamda yuk tashishda keng foydalanilgan. Ayniqsa, agrar xo'jalikda otlarning o'rnini juda muhim mehnat kuchi sifatida ajralib turgan. Xonlikdagi otlar nafaqat mahalliy ehtiyojlar uchun, balki savdo-sotiq va harbiy ishlarda ham muhim rol o'ynagan. Manbalarda qayd etilishicha, Xorazm otlari o'zining chidamliligi va tezkorligi bilan Turkman va Qozoq otlari bilan tenglasha olgan bo'lib, ba'zan esa ularning ayrim xususiyatlarini ham ortda qoldirgan. Yuk tashishda tuyalar va eshaklardan ham foydalanilgan, tuyalar ayniqsa uzoq masofali karvon yo'llarida muhim transport vositasi bo'lgan. Ho'kizlardan esa dalalarni va yerlarni haydashda asosiy yordamchi kuch sifatida foydalanishgan. Chorvachilikda zotdor qo'ylar yetishtirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Xiva xonligida boqilgan qo'y zoti tarkibida turkmani, qozoqi, arabi va guzari kabi zotlar mavjud bo'lib, ular go'shti, yog'i va junining sifati bilan mashhur bo'lgan. Bu zotlarning turliligi va sifati Xorazm vohasining iqlim sharoiti yaxshiligi, yaylovlarning ko'pligi hamda chorvachilik tajribasining mukammalligidan dalolat beradi.

Chorvachilikning rivojlanishi Xorazm vohasida nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari (go'sht, sut, yog') balki kiyim-kechak ishlab chiqarishda (jun, teri) ham muhim xomashyo manbai bo'lgan. Bu esa Xiva xonligi iqtisodiy hayotining ko'p tarmoqli va o'zaro bog'liq bo'lganligini yana bir bor isbotlaydi. Mazkur chorvachilik tizimi dehqonchilik bilan uzviy bog'langan holda, vohaning tabiiy-iqlimiy sharoitlariga moslashgan, an'anaviy hamda barqaror agrar tuzum sifatida shakllangan edi.

Xiva xonligi Qo'ng'irotlar sulolasi davrida iqtisodiyotning asosini tashkil etuvchi qishloq xo'jaligi asoslarini tashkil etuvchi yer egaligi tizimi murakkab va keng qatlamli tuzilishga ega bo'lgan. Yerlarning barchasi davlat, ya'ni xon mulki deb hisoblansada, amalda yer egaligining turli shakllari mavjud bo'lib, davlat yerlari, xususiy yerlar va vaqf yerlariga bo'lingan.

Davlat yerlarining asosiy qismini hukmdor tomonidan zabt etilgan yoki o'zlashtirilgan hududlar tashkil qilgan bo'lib, ular "zamini maita" -egasiz yerlar, "bekor yer" -bo'sh turgan yerlar, "bo'z yer" -yangi o'zlashtirilayotgan yerlar deb nomlangan. Bu yerlar davlat tomonidan ijaraga berilgan, dehqonlar esa undan foydalanish evaziga yer solig'ini to'laganlar.

Xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumining ajralmas qismi bo'lgan soliq va majburiy to'lovlar bo'lib, ayniqsa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari - dehqonlar va chorvadorlar zimmasiga katta yuk bo'lib tushgan. Xonlikning asosiy daromad manbailaridan bo'lgan soliq tizimi bo'lib, bu tizim murakkab va ko'p qatlamli hisoblanadi. Soliqlarning ko'pligi va ularning hajmi mehnatkash xalqning ijtimoiy-iqtisodiy holatini og'irlashtirgan, ayrim hollarda esa yer egalari va dehqonlarning ijtimoiy tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'lgan. Asosiy soliq turi "salg'ut" bo'lib, yerga egalik va undan foydalanish evaziga undiriladigan soliq bo'lgan. Bunga qo'shimcha ravishda

bir martalik to'lov - alg'ut, harbiy va davlat ehtiyojlari uchun yig'iladigan miltiq puli (qurol xaridiga), uloq tutuv (ot va tuyalarni safarbar etish), arava oluv (transport vositalarini jalb qilish), qo'nalg'a va so'ysun (amaldorlar joylashgan vaqtda ularni joylashtirish va mehmon qilish) kabi to'lovlar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, ma'muriy apparatni ta'minlashga yo'naltirilgan chopar puli, tarozuyona -bozor muassasalari uchun to'lov, mirobona -suv ta'minoti xizmatlari uchun, darvozabon puli, mushrifona -hosil nazoratchisiga to'lov, qorovul puli, xazinachi haqi, afanak puli -ish majburiyatidan ozod etish to'lovi, chibik puli-ommaviy mehnat majburiyatidan ozodlik uchun to'lov kabi 18 dan ortiq soliq va to'lovlar mavjud bo'lgan. Bular asosan natural shaklda - hosil, chorva yoki boshqa mahsulotlar bilan undirilgan soliq yig'uvchilarning shaxsiy manfaatlariga xizmat qilgan. Natijada, aholining ko'pchiligi haddan tashqari soliq bosimidan aziyat chekkan, soliqlarni to'lay olmagan mayda yer egalari esa o'z yerlaridan voz kechishga majbur bo'lgan. Mazkur og'ir iqtisodiy ahvolni yaxshilash va davlat boshqaruvini markazlashtirish uchun Xiva xoni Muhammad Rahimxon I tomonidan olib borilgan iqtisodiy islohotlar alohida ahamiyat kasb etadi. U soliq tizimini soddalashtirish va markazlashtirish maqsadida xiroj - mahsulot shaklidagi to'lovni pul ko'rinishidagi salg'ut bilan almashtirdi. Bu o'zgarish orqali fuqarolarning soliq majburiyatlari aniq va barqaror shaklga keltirildi.

Muhammad Rahimxon I davrida soliq yig'ish ishlarini markaziy hokimiyat zimmasiga olish, barcha tushum va chiqimlarni maxsus moliyaviy daftarlar orqali yuritish, xon tomonidan to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilish tizimi joriy etildi. Bu orqali mahalliy amaldorlarning soliqlardan o'zlashtirishini cheklash, davlat xazinasiga tushadigan daromadlarni oshirish hamda iqtisodiy tartibni mustahkamlash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, yangi tizimda soliqlar yer maydonining kattaligi, mahsulot turi va hosildorlik darajasiga qarab belgilanadigan bo'ldi, bu adolat tamoyillariga yaqinlashishga xizmat qildi. Muhammad Rahimxon I tomonidan amalga oshirilgan bu islohotlar, albatta, faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy barqarorlikni tiklash yo'lida ham muhim tarixiy bosqich hisoblanadi.

Qo'ng'irotlar sulolasining mashxur vakili Muhammad Rahimxon I tomonidan joriy etilgan soliqlar islohoti natijasida Xiva xonligining mulkdorlari iqtisodiy imkoniyatlariga qarab aniq tartibda uch guruhga ajratilgan. Bu yondashuv davlat moliyaviy sohasini adolatli siyosat yuritish tamoyillariga yaqinlashuvi sifatida e'tirof etiladi.

Xiva xonligi hududidagi yarim ko'chmanchi va o'troq chorvador aholining iqtisodiy faoliyatiga ham soliq solingan bo'lib, ular davlatga xiroj-yer solig'i bilan bir qatorda, chorvachilikka aloqador zakot-qoramol solig'i ham to'laganlar. Bu jihatlar davlat tomonidan agrar qatlamni to'liq iqtisodiy nazorat ostida saqlashga intilganini ko'rsatadi. Xonlikda agrar sohaga aloqador infratuzilma va obodonlashtirish ishlari keyingi yillarda sezilarli darajada jadallashdi. Ayniqsa, Said Muhammadxon (1860-1863) davrida Amudaryo o'ng sohilidagi bo'z yerlarga suv

chiqarilib, yangi serhosil yerlar o'zlashtirildi. Bu holat Xiva xonligining demografik va iqtisodiy salohiyatini kengaytirish bilan bir qatorda, Xiva xonligining agrar strategiyasida yangi bosqichni boshlab berdi.

Said Muhammad Soniy davrida (1863-1864) mamlakatni iqtisodiy barqarorlashtirish yo'lida tadbirkorlik, savdo-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirishga keng yo'l ochildi. Shahar markazlarida savdo rastalari, do'konlar va ustaxonalarning kengaytirilishi orqali ichki bozor infratuzilmasi mustahkamlandi. Xonlikning Buxoro, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Rossiya bilan olib borgan savdo aloqalari esa Xiva iqtisodiyotining tashqi integratsiyasini ta'minladi. Bu davrda Xiva shahrining o'zida 700 dan ortiq hunarmand kosiblarning faoliyati qayd etilgan, bu esa shaharning iqtisodiy markaz sifatida rolini mustahkamladi. Muhammad Rahimxon II davrida agrar sektorni yanada takomillashtirish va suv bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shohobod (Shovot), Polvon, Qilichniyozboy, Lavzon kabi qadimiy kanallar ta'mirlandi va suv o'tkazish imkoniyatlari kengaytirildi. Sho'raxon va Bo'zyop kanallari rekonstruksiya qilindi, Lavzon kanalidan pastda esa Amudaryodan suv oluvchi 39 chaqirimli yangi kanal barpo etildi. Bular natijasida minglab tanob yerlar qayta o'zlashtirilib, eski yer maydonlari sug'orishga yaroqli holga keltirildi. Ushbu soliq islohotlari va sug'orish inshootlarining rekonstruksiya Xiva xonligida savdo iqtisodiy samaradorlikni oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash, barqarorlashtirish va davlat xazinasiga tushadigan daromadni oshirish hamda ko'paytirish yo'lida xizmat qildi. Bu tarixiy voqealar Xiva xonligining iqtisodiy taraqqiyot siyosatida o'ziga xos o'zgarishlarni boshlab berganidan dalolat beradi.

Xulosa. Xiva xonligida Qo'ng'irotlar davri iqtisodiy taraqqiyotining asosiy xususiyatlari asosan qishloq xo'jaligi, agrar-dehqonchilik, chorvachilik hunarmandchilik va savdo iqtisodiy aloqalariga tayangan bo'lib, yer egaligi hamda soliq tizimi ham bevosiya xonlik iqtisodiyotining yaxshilanishiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazgan. Xonlikda yer davlat mulki hisoblanib, undan foydalanish uchun turli ijtimoiy qatlamlar - mulkdorlar, ijarachilar va chorvadorlar davlatga belgilangan miqdorda soliq to'lab turardilar. Muhammad Rahimxon I davrida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida soliq tizimi soddalashtirilishi, mahsulot solig'i o'rniga pul solig'i (solg'ut) joriy etilishi va soliqlar markaziy hokimiyat tomonidan nazorat qilina boshlanishining o'zida iqtisodiyotning rivojlanishi uchun muhim omil hisoblangan. Bu esa xazinaga tushumlar oshishiga, iqtisodiy boshqaruvning barqarorlashishiga olib keldi. Shuningdek, kanallarning qazilishi va irrigatsiya inshootlarining qurilishi va ta'mirlanishi orqali yangi yerlar o'zlashtirildi, bu esa qishloq xo'jaligi salohiyatini ma'lum darajada oshirdi. Dehqonchilikda bir qancha yutuqlarga erishildi ayniqsa donli va poliz ekinlari sohasida. xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xiva xonligi iqtisodiy taraqqiyoti o'z davrida murakkab, ammo izchil rivojlanayotgan tizim bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov.B.A., To'laganov A. Xiva xonligi tarixi. Toshkent: Fan, 2006.
2. Mahmud ibn Valiy. Bahr ul-asror fi manaqub ul-axyor. XVII asr qo'lyozma manbasi.
3. Vamberi A. Markaziy Osiyoga sayohat (Travels in Central Asia). London: John Murray, 1864.
4. G'ulomov Y.G Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamonlardan hozirgacha. – Toshkent, 1959. 313 bet
5. Xaydarov A., Salohiddinov A., Raximov B. va boshq. O'zbekiston tarixi. 2-jild. Toshkent: Fan, 2000. B. 213.
6. G'ulomov Ya.G. Xiva xonligi tarixidan. Toshkent: 1959.
7. Matniyozov M., Ollamov Y. Xorazm davlatchiligi tarixi. Urganch: 2009. B. 170.
8. Zaks B.A. Xorazm vohasining irrigatsiyasi va dehqonchiligi tarixi. Toshkent: 1953.
9. Ahmedov.B.A. Новые сведения о Хиве // Общественные науки в Узбекистане, № 9. 1982.
10. Абидова, З. (2018). Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари (тарихий-этнологик тадқиқот). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертация.
11. Abidova, Z. (2023). Worship of trees in cultural practice of the uzbeks of the Khorezm oasis. EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO), 10(3), 10-12.
12. Abidova, Z. . (2025). SEASONAL RITUALS HELD AT SHRINES AMONG THE INHABITANTS OF THE KHOREZM OASIS. Oriental Journal of History, Politics and Law, 5(01), 131–137. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-05-01-17>